

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.

Tursunova Iroda Ilhomjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Logopediya ta’lim yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi

Email: tursunovairoda15@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillayev B.A.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19453818>

***Annotatsiya.** Yangi O‘zbekistonda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim tizimidagi islohotlar, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda yoshlarni ilm-fan va tadqiqot faoliyatiga jalb qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va dasturlarining ahamiyati ochib beriladi. Maqolada yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish orqali jamiyat taraqqiyoti va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim jihatlari asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, yoshlar siyosati, intellektual salohiyat, ta’lim tizimi, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, iqtidorli yoshlar, ilm-fan, kadrlar tayyorlash, rivojlanish strategiyasi.*

***Аннотация.** Анализируются современные механизмы развития и совершенствования интеллектуального потенциала молодежи в Новом Узбекистане. В частности, освещаются вопросы реформирования системы образования, внедрения инновационных подходов, использования цифровых технологий, а также привлечения молодежи к научной и исследовательской деятельности. Также раскрывается значение государственной политики и программ, направленных на поддержку талантливой молодежи и развитие их творческих и аналитических способностей. В статье обосновываются важные аспекты развития общества и подготовки конкурентоспособных кадров посредством повышения интеллектуального потенциала молодежи.*

***Ключевые слова:** Новый Узбекистан, молодежная политика, интеллектуальный потенциал, система образования, инновации, цифровые технологии, талантливая молодежь, наука, подготовка кадров, стратегия развития.*

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

***Abstract.** The article analyzes modern mechanisms for developing and improving the intellectual potential of youth in New Uzbekistan. In particular, it highlights issues related to reforms in the education system, the introduction of innovative approaches, the implementation of digital technologies, and the involvement of young people in scientific and research activities. The significance of state policies and programs aimed at supporting talented youth and developing their creative and analytical thinking abilities is also revealed. The article substantiates important aspects of social development and the training of competitive personnel through enhancing the intellectual potential of young people.*

Keywords: *New Uzbekistan, youth policy, intellectual potential, education system, innovation, digital technologies, talented youth, science, personnel training, development strategy.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida har qanday davlatning barqaror rivojlanishi, avvalo, uning inson kapitali, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati bilan bevosita bog‘liqdir. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar markazida aynan yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim va ko‘nikmalarini zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bois, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni innovatsion fikrlaydigan, raqobatbardosh mutaxassislar etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “O‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari shiori atrofida birlashtirish” [1] bugungi kun islohotlarining falsafiy asosini tashkil etadi.

Zamonaviy jamiyatda bilim iqtisodiyoti shakllanib borayotgan bir paytda, ta’lim tizimini takomillashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarni ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) yo‘nalishlariga keng jalb qilish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali mamlakatning innovatsion salohiyatini mustahkamlash mumkin. Davlat tomonidan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar, grantlar, stipendiyalar va startap loyihalarni rag‘batlantirish tizimi yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa o‘z navbatida, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni tizimli ravishda rivojlantirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Har qanday jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti, avvalo, undagi ilm-fan, ta’lim tizimi hamda intellektual boylikning rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois fan va ta’lim nafaqat davlatning iqtisodiy o‘rishini ta’minlaydi, balki uning

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

xalqaro maydondagi nufuzini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati sharoitida esa yosh avlodni barkamol, yuksak ma’rifatli va intellektual salohiyatga ega shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [2].

Mamlakatimizda yoshlarni sifatli oliy ta’lim bilan qamrab olish, zamon talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda qamrov darajasini oshirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, professor-o’qituvchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish kabi yo’nalishlarga alohida e’tibor qaratildi. So’nggi yillarda ushbu sohani takomillashtirishga qaratilgan ko’plab normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi ham bu boradagi islohotlarning izchilligini ko’rsatadi. Xususan, oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi bu borada muhim dasturiy asos bo’lib xizmat qilmoqda. Ushbu konsepsiya ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashni nazarda tutadi. Hozirgi kunda jamiyatning oliy ta’limga bo’lgan ehtiyoji tobora o’zgarib, yangilanib bormoqda. Endilikda asosiy e’tibor faqat bilim va ko’nikmalarni shakllantirishga emas, balki yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilmoqda. Kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, tizimli yondashuvga ega bo’lgan mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish jarayonida o’quv reja va dasturlarni tubdan qayta ko’rib chiqish, ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati ham dolzarb masala sifatida namoyon bo’lmoqda. Pedagog va professor-o’qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ularning zamonaviy bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy muhitni mustahkamlash muhim vazifalardan biri bo’lib qolmoqda. Intellektual salohiyat tushunchasi ko’pincha ta’lim darajasi bilan bog’liq holda talqin qilinadi, biroq uni kengroq yondashuv asosida ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki intellektual salohiyat nafaqat bilimlar majmuasi, balki ilmiy, innovatsion va madaniy imkoniyatlarning uyg’unligini ham o’z ichiga oladi. Ayniqsa, innovatsion salohiyat ilmiy bilimlarni amaliy natijalarga aylantirish, yangi texnologiyalar va mahsulotlar yaratish bilan bog’liq bo’lib, iqtisodiy rivojlanishda muhim o’rin tutadi[3]. Ta’lim salohiyati esa bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish jarayonini ifodalaydi. U talabalarning intellektual imkoniyatlari, fikrlash darajasi va bilimlarni o’zlashtirish tezligi bilan belgilanadi. Yoshlarning intellektual rivoji ularning madaniy salohiyati bilan ham uzviy bog’liq bo’lib, bu jamiyatning tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarini o’zida aks ettiradi. Tadqiqotlarga ko’ra, insonning intellektual salohiyati nazariy bilimlar, amaliy tajriba va individual qobiliyatlarning uyg’unligidan iborat bo’lib, u innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, talabalar jamiyatning eng faol, ijodiy va

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

intellektual jihatdan rivojlangan qatlami sifatida ajralib turadi. Talabalik davrida shaxsning aqliy va ijodiy qobiliyatlari faol shakllanadi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba’zi hollarda yoshlar uchun oliy ta’lim olish bilimlarni chuqurlashtirish vositasidan ko‘ra, ijtimoiy maqomga erishish omili sifatida qaralmoqda. Bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, ayrim talabalarda mantiqiy va konseptual fikrlash ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi ham muammoli holat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda ta’lim muhitining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ta’lim muhiti shaxsning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar majmuasi bo‘lib, u o‘z ichiga axborot maydoni, faoliyat jarayoni va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini qamrab oladi. Universitet muhiti esa talabalar uchun nafaqat bilim olish, balki o‘z intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon etish maydoni hisoblanadi. “Intellektual salohiyat” tushunchasi inson tafakkurining imkoniyatlari, uning egallagan bilim va ko‘nikmalari orqali jamiyat rivojiga qo‘shadigan hissasini ifodalaydi. Qadimgi faylasuf Aristotel “salohiyat”ni inson ichki imkoniyati, ya’ni harakatga aylanishi mumkin bo‘lgan qudrat sifatida talqin etgan. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish — bu ularning tafakkur salohiyatini real hayot va ijtimoiy faoliyatda to‘liq namoyon etishiga erishish demakdir[4]. Abduraxmonovning qarashlariga ko‘ra, intellektual salohiyatni faqat nazariy bilimlar yig‘indisi sifatida baholash yetarli emas. U bu tushunchani kengroq talqin qilib, uni ijtimoiy va ma’naviy faoliyat bilan uzviy bog‘laydi. Olimning fikricha, yoshlarning bilim darajasi, ma’naviy ongining yuksalishi hamda ijodiy fikrlash qobiliyati jamiyatning intellektual kapitalini shakllantiradi. Shuningdek, intellektual salohiyat “intellektual mulk”, “ijodkorlik” va “innovatsiya” kabi kategoriyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular davlat taraqqiyotining falsafiy asosini tashkil etadi [5].

Yoshlarning intellektual rivojida ta’lim tizimi va ilmiy-texnologik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Ta’lim intellektual salohiyatni shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Shu bois ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish zarur hisoblanadi. Stsiyentizm konsepsiyasi ilm-fanni eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etib, yoshlarni uni hayotiy mezonga aylantirishga undaydi. Abduraxmonov tomonidan taklif etilgan intellektual salohiyatni baholash modeli ($IS = (KT + NM + MI + AI) \times MS \times RF$) o‘zining yangiligi bilan ajralib turadi. Ushbu modelda kognitiv texnologiyalar, sun’iy intellekt, motivatsiya va refleksiya kabi omillar yoshlarning intellektual rivojini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida talqin etiladi [6]. Bundan

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

tashqari, zamonaviy raqamli ta’lim vositalari ham yoshlarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Quizizz, Wordwall, Kahoot, LearningApps kabi platformalar orqali talabalar tanqidiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda kreativlik muhim omillardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash insonning yangicha yondashuv topishi, muammolarni noodatiy hal etishi va o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim jarayonida erkin fikrlash muhitini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda “Zakovat” kabi intellektual o‘yinlarni keng joriy etish muhimdir. Yoshlar orasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ham ularning intellektual salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Innovatsion fikrlash, mas’uliyat, riskni baholash va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari yoshlarni iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda bu borada qator normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar qabul qilinib, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning mustahkam huquqiy bazasi yaratildi.

Shuningdek, Prezident maktablari, ijod maktablari va Temurbeklar maktablari kabi yangi turdagi ta’lim muassasalari yoshlarning intellektual rivojini ta’minlashda alohida o‘rin tutmoqda. Ushbu muassasalarda zamonaviy bilim berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirish mexanizmlari ta’lim, ma’naviyat, texnologiya va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida shakllanmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishda ta’lim tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va pedagoglarning malakasini oshirish bu boradagi muhim vazifalardandir. Stsiyentistik yondashuv yoshlarni ilmiy tafakkurga yo‘naltirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kreativlik va tadbirkorlik yoshlarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishida asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat siyosati va sog‘lom ijtimoiy muhitning uyg‘unligi esa yoshlarning intellektual o‘rishini ta’minlovchi muhim omildir. Intellektual salohiyatni oshirish faqat ta’lim tizimi bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning barcha sohalarida innovatsion fikrlashni qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, yoshlarning intellektual salohiyati mamlakat kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, har bir ta’lim muassasasi, oila va jamiyat institutlari yosh avlod tafakkurini rivojlantirishni o‘z faoliyatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirishi zarur.

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - 416 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - Toshkent: Adolat, 2023. - 72 b.
4. Aristotel. Metafizika / Tarjima: A. Xoliqov. - Toshkent: Falsafa instituti, 2010. - 320 b.
5. Abduraxmonov U. U. Yoshlar intellektual salohiyatining ijtimoiy-falsafiy talqini // O‘zbekiston falsafasi: nazariya va amaliyot. - 2024. -№ 2. - B. 45-53.
6. Abduraxmonov U.U. O‘zbekistonda yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): PhD dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent: Toshkent amaliy fanlar universiteti, 2025. - 54 b.
7. Dehqanova, G. A. (2024). SAMARALI MULOQOT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 550-555.
8. Botirova, S. (2023). FORMS OF SPEECH COMMUNICATION. In GLOBAL SCIENCE (pp. 114-116).